

O'zbekistonda mavzuli kartalarni yaratish tarix, nazariya va amaliyot

Kartografiya davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi va "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasi o'rtasida tasdiqlangan shartnomaga asosan TIQXMMI Yer resurslarini boshqarish fakultetining "Geodeziya va geoinformatika" yo'nalishi 3-bosqich 1 guruh talabalariga "5+1" dasturi asosida 27-fevral sanasida "Raqamli kartaga qo'yiladigan talablar" mavzusida amaliy mashg'ulot darsi o'tkazildi. Amaliy mashg'ulot korxonaning "Elektron kartografiya va dizayn" bo'limi karta malumotlarini bo'lish muhandisi N.Usmonova va kafedra dotsenti S.Abduraxmonov hamda assident Z.Abdurahmonovlar tomonidan olib borildi.



Bundan tashqari talabalarga korxona faoliyati to'g'risida bat afsil ma'lumot berish uchun xodimlar bo'limi boshlig'i N.Nozimov tomonidan korxonadagi ish o'rnlari, korxonada faoliyat yuritish uchun talabalarga qo'yiladigan bilim, ko'nikma va tajribalar to'g'risida bat afsil ma'lumotlar berildi. Mashg'ulotlar qiziqarli savol javoblarga boy tarzda olib borildi. Talabalar elektron kartalarni yaratish bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Geodeziya va geoinformatika" kafedrasi dotsenti v.b. Abduraxmonov Sarvar Narzullaevich
TIQXMMI matbuot xizmati